

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

2026-yil
15 (34)-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

RU

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

EN

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF
THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

“Filologiya va pedagogika” ilmiy-metodik jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda 360240-raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

2026-yil
15 (34)-son

e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR
Nargiza Sotvoldiyeva

MUHARRIRLAR:
Shahobiddin Rasulov
Najmiddin Ermatov
Emma Torosyan
Shaxina Muxamedjanova

SAHIFALOVCHI
Ziyoda Komilova

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar
@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 28.08.2026 da nashr etildi.

MUASSIS
O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi
"Til va adabiyot ta'limi"
davlat korxonasi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

TAHRIR HAY'ATI:

10.00.00 – FILOLOGIYA

E'zozxon Karimova
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
Farhod Boqiyev
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari
Azizbek Turdiyev
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari
Farrux Jabborov
"Til va adabiyot ta'limi" – "Преподавание языка и литературы" – "Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri
Baxtiyor Mengliyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, filologiya fanlari doktori
Baxtiyor Doniyorov
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali professori, filologiya fanlari doktori
Anatoliy Lixodziyevskiy
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Oksana Gibraltarskaya
O'zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Sherzod Atamuradov
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Mohichexra Boltayeva
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti, pedagogika fanlari doktori
Muxtarbay Kurbanov
Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Anvar Bo'ronov
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Dilmurod Teshaboyev
Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Gulhida Ikromova
Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Aziza Axmedova
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi
Iroda Nasimova
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Ma'suma Mo'minova
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsent v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo'ldoshev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
G'ofir Hamroyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori
Xadicha Muxitdinova
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
Gulnora Mansurova
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori
Sevara Ziyayeva
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Indira Narkulova
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Abduvali Daminov
O'zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti huquqiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
Gulnoza Uzokova
Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari nomzodi
Lola Akramova
Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'zbek tili va xorijiy tillar, pedagogika kafedrasi dotsenti
Zulfiya Ortiqova
Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Pulotjon Qaxorov
Samarqand davlat universitetining Urgut filiali dotsenti
Dilafruz Asqarova
Farg'ona davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Svetlana Umirova. O'xshatish modellarini korpus asosida aniqlash (Usmon Azim ijodi misolida) 4
Diyora Fayzullayeva. Tarixiy voqelik tasvirida badiiy mahorat va uslub masalalari 7
Yulduz Mustafayeva. O'zbek nasrida badiiy psixologizm genezisi va taraqqiyot tamoyillari 9
Maftuna Rahimova. Sintaksisda mantiqiy strukturalarning voqelanishi 11
Sarvinoz Mardonova. O'zbek tilida leksik birliklarning ma'no taraqqiyoti va semantik o'zgarishlar 14
Komila Saydjanova. Fransuz va o'zbek tillari dialogik diskursida antonimlarning kommunikativ-pragmatik funksiyalari 16
Nigora Shadmanova. Rus va o'zbek tillarida nutq odob-axloqining milliy-madaniy xususiyatlari 18
Oydinoy Turayeva. Ingliz maqollarining strukturaviy va semantik xususiyatlari: kognitiv-pragmatik tahlil 20
Икбола Абдуллаева. Филологические аспекты аксиологии человеческой жизни в книге А.П.Чехова «Остров Сахалин» 22
Нигора Абдурашитова. Историко-культурные истоки и эволюция образа женщины-воительницы в восточных дастанах 25
Шахноза Адилова. Художественная специфика «массовой литературы» 28
Нафиса Матчанова. Метафорические средства в лексико-семантической организации романа Г.Яхиной «Зулейха открывает глаза» 30
Дильбар Расулова. Многокомпонентная стилистическая конвергенция как средство репрезентации субъективного сознания в «Романе с жертвой» И.Абузярова 32
Отабек Усмонов. Косвенные речевые акты как объект современной прагмалингвистики 35
Darmonoy O'rayeva, Nilufar Narzullayeva. "Qon" va "suyak" tushunchalarining badiiy-falsafiy talqin asoslari 37
Mirzohid Muhammadaliyev. Kombayn poreyonimlarining leksik-semantik va nominativ tasnifi 40
Elbek Kurbanov. Sud lingvistik ekspertizasi: haqorat kontekstida implitsit ma'lumotlarni aniqlash mexanizmlari 42
Po'lotshoh Bobokalonov. Nutq buzilishi va nutq izolatsiyasining neyropsixolingvistik modeli 45
Ulbosin Ametova. Xorazm epik she'riyatining shakllanishi va uning nazariy asoslari 47
Nigora Mahmudova. The Concept of Derivation and the Stages of its Development in Linguistics 49
Mubina Mansurova, Surayyo Abidjonova. Modern Linguistics and Culture. Digital English: How Gaming and Social Media Shape Youth Slang 51
Diyora Shamshiyeva. Erkin A'zam asarlaridagi genderga xos murojaat birliklarining lingvopragmatik xususiyatlari 53
Barno Ergasheva. Frans Kafkaning "Qal'a" romanida oneyrik poetika: tush mantig'i va badiiy voqelik 56
Lola Avliyoqulova. Onkologiya sohasidagi tibbiy atamalarning struktur-semantik tahlili 59
Shahlo Sa'dullayeva. O'qituvchi obrazi arxetip sifatida (o'zbek va turk nasrlari misolida) 61
Gulasal Xayrulloyeva. Turli diskurslarda modallikning funksional-pragmatik xususiyatlari 64
Dilorom Yusupova. Arab tilidagi so'roq gaplarning yoritilishi: zamonaviy tilshunoslarning qarashlari 66
Санобар Уллиева. Роль фонетических языковых единиц в создании художественного образа 69
Яшин Нишанов. Субконцепт мудрость как составная часть концепта старость 71
Xilola Fazullayeva. Raqamli media muhitida infoteynment fenomeni: jurnalistik etika va transformatsiya jarayonlari 73
Nilufar Ibragimova. Alisher Navoiy musaddasida irfoniy-falsafiy tafakkur va uning badiiy ifodasi 75
Sadinura Ruzimurodova. O'zbek adabiy tili va qipchoq lahjasida konsonant alternatsiya hodisasining ortologik talqini 78
Mashxuraxon Burxanova. Tilning perseptual va konseptual paradigmasi 80
Dilfuza Avazova. Mushtarak obrazlar tahlili (Alisher Navoiy, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat va Abdulla Oripov ijodi misolida) 82
Yashin Azizov. O'zbek tilida metateza jarayoni: fonologik tadqiqot 84
Nursulton Eshmonov. Qarindoshlik atamalari tizimida etnolingvistik omillar 87
Gulxayo Osomiddinova. Mashrab obrazining diniy-tasavufiy talqini 91
Aziza Navro'zova. Realiyalarni tasniflashning lingvokulturologik muammosi 94
Olima Safarova. Farmatsevtik terminologiya va diskurs: lingvistik, semantik va kommunikativ xususiyatlar 97
Jasmina Axmedova. Buyuk Britaniyada ayollar matbuotining vujudga kelish zarurati 99
Surayo Akramova. Badiiy matnda lokutiv qatlamning poetik semantikani shakllantirishdagi o'rni (Jamol Kamol she'riyati misolida) 101
Intizor Umarova. Intermatnlilikni shakllantiruvchi vositalar: allyuziya, pretsedentli onimlar va kinoya 104
Iqbola Jahongirova. Ijtimoiy media diskursida multimodal dezinformatsiyaning lingvopragmatik xususiyatlari 106
Dildora Ibrogimova. Frazeologizmlarning dramalarda qo'llanishi va uning badiiyatga ta'siri 108
R.Kudiyarova. Saylovboy Jumag'ulov asarlarida foydalanilgan folklor obrazlar 112
Rayhona Raxmatova. Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida qahramonlar taqdiri 114

Feruza Raxmonberdiyeva. Ingliz va o'zbek tillarida tashqi qiyofa va xarakterni ifodalovchi frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari ... 117
Bunyodbek Sotvoldiyev. Hakerlar va kiberxavfsizlik sohasiga oid sleng birliklarining lingvistik xususiyatlari ... 119
Surayyo Akramova. Jamol Kamol she'riyatida til shaxsiyati va muallif pozitsiyasining ifodalanishi ... 121
Ma'mura Narziyeva. Abdulla Oripov she'riyatining lingvokulturologik xususiyatlari ... 123
Dilnavoz Yusupova. Ta'lim tizimida Alisher Navoiy g'azallarini sharhlash ... 125
Anora Hikmatova. Erkin A'zamning "Chapaklar va chalpaklar" asarida etnomadaniy kodlar va estetik modusning lingvopoetik hamda lingvomadaniy tadqiqi ... 128
Anvar Jo'rayev. "Roqim devoni" matnining shakllanish tarixi: qo'lyozma va bayoz manbalari munosabati ... 130
Gulchehra Mustafayeva. Ingliz va o'zbek tillaridagi go'zallik bilan bog'liq o'xshatishlar: o'ziga xoslik va umumiylik ... 132
Nodira Sayfiddinova. O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida retrospektiv usulning ahamiyati ... 134
Surayyoxon Ibroximova. Futuvvatnomalarning janriy xususiyatlari: shakl, mazmun va poetika ... 136
Dilafruz Xaydarova. Ispan diplomatik terminologiyasining o'zbek va rus tillariga tarjimasida kommunikativ-pragmatik moslashuv ... 139
Shahlo Xasanova. Harbiy diskursda buyruq va murojaat strategiyalarining pragmatik xususiyatlari ... 142
Sultonposhsho Sotiboldiyeva. Yangi O'zbekiston obrazining xalqaro media matnlarida shakllanishi: lingvistik va kommunikativ xususiyatlar ... 144
Dilora Pardayeva. Ingliz va o'zbek maqol hamda matallarida ambivalent mazmunning voqelanishi ... 147
Surayyo Jo'rayeva. Koinot, tabiat va inson: Isajon Sulton nasrida ilohiy yaratilish va borliq harakati ... 150
Fakhriddin Yarmanov. Analyse comparative des unités phraséologiques en français et en ouzbek ... 152
Laziza Xudayberdiyeva. Nutqiy yetishmovchiliklar: duduqlanish va unung sabablari ... 156
Yulduz Nafasova. O'zbek tilida presuppozitsiya turlarining tasnifi va ifodalanish vositalari tadqiqi ... 160
Nilufarxon Maxmudova. O'zbek xalq topishmoqlarida antropomorf metaforalarning voqelanishi ... 162
Fotima Ismoilova. Isajon Sultonning tarixiy roman yaratishdagi ijodiy mahorati ... 164
Nodira Qurbonova, Maftuna XAmdamova. Recurrent Themes and Stylistic Strategies in the Fiction of Joyce Carol Oates ... 167
Svetlana Umirova. Usmon Azim mualliflik korpusi uchun ekstralingvistik teglar modelini ishlab chiqish masalasi ... 170
Sarvinoz Umirova. Linguistic Innovations in Youth Language on Social Media: a Paralinguistic Perspective ... 175
Gulshoda Avloyorova. Milliy mentalitet va bolalar adabiyoti estetikasi: G'arb va Sharq paradigmalarining qiyosiy tahlili ... 178
Nilufar Ko'chimova. BMT nutqlarida "tinchlik" konseptining lingvopragmatik reprezentatsiyasi ... 181
Diyora Abdujalilova. Odob-axloq masalasi Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijoli talqinida ... 182

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Madina Abduqodirova. Adabiyot darslarida sinf o'quv jarayonini boshqarish kompetensiyasining nazariy-metodik asoslari ... 188
Мадина Исмагилова. Методические основы предупреждения интерференционных ошибок при изучении категории числа русского языка в узбекской школе ... 190
Шахризода Келдиёрова, Мохларойим Келдиёрова. Генеративный искусственный интеллект и иллюзия компетентности в обучении английскому языку: проблема подмены самостоятельной учебно-познавательной деятельности студентов ... 193
Матлуба Мирханова. Функционально-коммуникативный подход к изучению сложноподчинённых предложений на уроках русского языка ... 195
Муштарийбону Ахмедова. Эффективные формы организации уроков рки в классах с узбекским языком обучения в начальной школе ... 197
Diyora Baxramova. Pedagogical and Methodological Features of Developing Sociolinguistic Competence of Higher Education Students ... 200
Lutfiya Erkinova. Tpack and PBL as Modern and Effective Tools to Implement in Teaching ... 204
laylo odilova. Irony and Sarcasm in Uzbek and English Literary Discourse: a Comparative Pragmatic and Stylistic Study ... 206
Sayyora Islomkhodjayeva. Promoting English Language Development in Military Higher Education Through Blended Instruction ... 209
Solijon Azizov. Uch komponent – bir maqsad: blended ta'lim yozuv kompetensiyasini takomillashtirishning yangi modeli ... 214
Nigora Saidova. Neyropedagogik texnologiyalar asosida bo'lajak tarbiyachilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi ... 218
Dilsora Shodmonova. Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida sog'lom turmush tarzi kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik mohiyati ... 221
Nargiza Musulmanova. Elektron ta'lim resurslari asosida talabalar nutqiy savodxonligini o'quv jarayoniga integratsiya qilish ... 223
Dilobar Qayumova. The Role of Audio Dictionaries in Developing Pronunciation Competence ... 228
Muazzam Otabaeva. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasbiy qiziqishlarni shakllantirishning ilmiy-nazariy va pedagogik asoslari ... 230
Ulug'bek Yunusov. O'smirlarda qadriyatlar shakllanishining psixo-pedagogik xususiyatlari ... 232

Diyora SHAMSHIYEVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

ERKIN A'ZAM ASARLARIDAGI GENDERGA XOS MUROJAAT BIRLIKLARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Erkin A'zamning "Jannat o'zi qaydadir?", "Suv yoqalab" va "Hulo'l" asarlarida qo'llangan genderga xos murojaat shakllarining lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Murojaatlarning kommunikativ mazmunini aniqlashda ularning lug'aviy ma'nosi, qo'llanish vaziyati, personajlar o'rtasidagi munosabat va nutqiy maqsad hisobga olindi. Tahlil natijasida murojaat birliklari beshta asosiy turga ajratildi. Shuningdek, bir xil yoki tashqi jihatdan hurmat mazmuniga ega shakllarning turli kontekstlarda kinoya, norozilik, erkalash, buyruq, mavqe asimmetriyasini yuzaga chiqarishi aniqlandi. Murojaat birliklari badiiy matnda gender munosabatlari va personajlarning o'zaro bahosini ifodalovchi muhim lingvopragmatik vosita ekani asoslandi.
Kalit so'zlar: gender, genderga xos murojaat birliklari, badiiy matn, lingvopragmatika, gender asimmetriyasi, kommunikativ vaziyat, pragmatik ma'no, kinoyaviy murojaat.
Annotation. This article analyzes the linguopragmatic features of gender-specific forms of address used in Erkin A'zam's works "Jannat o'zi qaydadir??", "Suv yoqalab", and "Hulo'l". To determine the communicative meaning of these forms of address, their lexical meanings, contexts of use, relationships between the characters, and communicative intentions were taken into account. As a result of the analysis, the address units were classified into five main types. It was also established that identical forms, or forms that appear to express respect, may convey irony, disapproval, affection, and command in different contexts, as well as reveal status asymmetry between the interlocutors. The study demonstrates that address units constitute an important linguopragmatic means of expressing gender relations and the characters' mutual evaluations in literary texts.
Keywords: gender, gender-specific address units, literary text, linguopragmatics, gender asymmetry, communicative situation, pragmatic meaning, ironic address.
Аннотация. В статье анализируются лингвопрагматические особенности гендерно-специфических форм обращения, употреблённых в произведениях Эркина Азама «Jannat o'zi qaydadir??», «Suv yoqalab» и «Hulo'l». При определении коммуникативного содержания обращений учитывались их лексическое значение, ситуация употребления, взаимоотношения между персонажами и речевая интенция. В результате анализа единицы обращения были разделены на пять основных типов. Установлено также, что одни и те же формы или обращения, внешне выражающие уважение, в различных контекстах могут передавать иронию, недовольство, ласку и приказ, а также выявлять статусную асимметрию между участниками общения. Обосновано, что единицы обращения являются важным лингвопрагматическим средством выражения гендерных отношений и взаимной оценки персонажей в художественном тексте.
Ключевые слова: гендер, гендерно-специфические единицы обращения, художественный текст, лингвопрагматика, гендерная асимметрия, коммуникативная ситуация, прагматическое значение, ироническое обращение.

Murojaat muloqot jarayonida so'zlovchi nutqining muayyan shaxsga yo'naltirilishini ta'minlovchi va kommunikantlar o'rtasidagi munosabatni namoyon etuvchi lisoniy hodisadir. Badiiy matnda murojaat birliklari qahramonlar o'rtasidagi munosabatni ifodalash bilan birga, ularning jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqeyi, ruhiy holati va kommunikativ maqsadini ham namoyon etadi. Ayniqsa, bir shaxsga turli vaziyatlarda qo'llangan murojaat shakllari so'zlovchining tinglovchiga munosabati, yaqinlik yoki masofa darajasi, hurmat, erkalash, kinoya, norozilik kabi pragmatik ma'nolarni yuzaga chiqaradi. Shu jihatdan murojaat birliklarini gender omili bilan bog'liq holda o'rganish badiiy qahramon nutqining ijtimoiy va pragmatik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

O'zbek tilshunosligida murojaat birliklarining lisoniy tabiati, semantik tuzilishi va nutqiy qo'llanishiga oid bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, Zuhro Akbarova murojaat va undalmani o'zaro bog'liq, ammo aynan bir hodisa bo'lmagan tushunchalar sifatida izohlaydi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, murojaat ifodalovchi so'z grammatik jihatdan undalmaga mos keladi, ammo mazmuniy jihatdan murojaat shakli so'zlovchi nutqi qaratilgan shaxsnigina emas, har qanday obyektni ifodalashi mumkin [1: 16–17].

Erkin A'zam asarlarida murojaat shakllari personajlarning o'zaro munosabatlarini ochib beruvchi muhim lisoniy vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi qahramonlarning jinsi, yoshi, qarindoshlik aloqasi, ijtimoiy mavqeyi hamda muayyan kommunikativ vaziyatga mos ravishda qarindoshlik nomlari, antroponimlar, unvon va kasb-hunar bildiruvchi birliklar, erkalash yoki kamsitish mazmunidagi murojaatlardan unumli foydalanadi. Bunday birliklarning tanlanishi tasodifiy bo'lmay, qahramonlarning gender roli, jamiyatda shakllangan muomala me'yorlari va so'zlovchining pragmatik niyati bilan belgilanadi.

Erkin A'zam asarlari asosida o'zbek nutqiy muloqotining lingvopragmatik xususiyatlari B.I.Odinayev tomonidan maxsus tadqiq etilgan. Olim badiiy matndagi muloqotni tahlil qilishda murojaat shakli va muloqot uslubini nutqning ijtimoiy-etiket tomonini namoyon qiluvchi vositalar sifatida baholaydi hamda ularni nutq ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat bilan bog'liq holda o'rganish lozimligini ta'kidlaydi [2: 22–23]. Mazkur maqola maqsadi Erkin A'zam asarlarida uchraydigan murojaat shakllarining erkaklar va ayollar nutqida qo'llanish xususiyatlarini, ularning kommunikativ vaziyat hamda adresant-adresat munosabatiga bog'liq pragmatik vazifalarni aniqlashdan iborat. Bunda murojaat birliklari tasniflanib, ularning hurmat, yaqinlik, erkalash, ijtimoiy masofa, kinoya-kesatiq va salbiy baho ifodalashdagi o'rni badiiy matndan olingan misollar asosida yoritiladi.

Badiiy matnda murojaat birliklarini tasniflashda birliklarning shakliy va lug'aviy xususiyatlari bilan cheklanib bo'lmaydi. Chunki ayni bir murojaat shakli turli kommunikativ vaziyatlarda turli pragmatik ma'nolarni ifodalashi mumkin. Shuning uchun murojaat birliklarini ularning qo'llanish sharoiti, suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabat va matnda bajargan pragmatik vazifasi asosida o'rganish maqsadga muvofiq.

E.Dikkey nominal murojaat birligining kommunikativ ma'nosi uning lug'aviy ma'nosiga har doim ham mos kelmasligini ta'kidlaydi. Lug'aviy jihatdan salbiy birlik murojaat vaziyatida ijobiy munosabatni, tashqi jihatdan hurmatli shakl esa muayyan kontekstda kinoya yoki norozilikni anglatishi mumkin. Shuning uchun murojaatlarni tasniflashda birlikning lug'aviy mazmunidan tashqari uning muayyan nutqiy vaziyatda bajarayotgan pragmatik vazifasi ham hisobga olinishi zarur [3: 255].

Mazkur yondashuvga asoslanib, Erkin A'zamning "Jannat o'zi qaydadir?", "Suv yoqalab" va "Hulo'l" asarlaridagi genderga

xos murojaat birliklari murojaat yo'nalishi, tomonlar o'rtasidagi munosabat hamda birlikning kontekstual-pragmatik vazifasiga ko'ra tasniflandi.

1-jadval

Erkin A'zam asarlaridagi genderga xos murojaat birliklarining pragmatik tasnifi

T/r	Murojaat birliklarining turi	Asarlarda uchragan misollar	Asosiy pragmatik xususiyati
1.	Erkakning ustun mavqeyini ifodalovchi murojaatlar	dadajonim, xo'jayin, tog'asi, domlayi kalon, domlajon, domullojon, ustoz, rais bobojon, sherimard	Hurmat, bo'ysunish va gender assimmetriyasini ifodalash
2.	Ayolning oilaviy gender maqomini ko'rsatuvchi murojaatlar	polvon qiz, zahar xola, yangajon, yangamullojon, opaginam, ena, Xotin, kampir, kelin, xonim,	Ayolni oiladagi o'rni yoki gender maqomi orqali ifodalash
3.	Undovlar vositasida shakllangan murojaatlar	he, noinsof,hay benavat,o'v xotin,hoy kelin,ho', suv o'g'risi,o'-o', rais,e, tentak,ey, xotin, hoy bola,he, erkakka o'xshagan,he, nomard,hay, nodon-a,he, hayvon,voy eshak, voy to'ng'iz-ey,e, tentak	Diqqatni jalb qilish, buyurish, jerkish va ustun munosabatni kuchaytirish
	Yaqinlik, samimiyat va erkalash mazmunidagi murojaatlar	qoravoy, do'stim, oyivoy, melischik, ammashka, enajon, mamul, jonim, jonik, o'rtoqjon, azizim, birodar, aylanay, jonginam	Yaqinlik, samimiyat, erkalash yoki mazaxni ifodalash
5.	Baholovchi, kinoya-hurmat yoki salbiy mazmunli murojaatlar	malades, polvon qiz, toshbag'ir, eshak, to'ng'iz, iflos, kasofat, tentak, enag'ar, juvonmarg, nomard, nodon, hayvon	Shakliy hurmat orqali kinoya-kesatiq yoki norozilikni ifodalash

1. Erkakning ustun mavqeyini ifodalovchi murojaatlar. Murojaat shakllarining muqobil yoki nomuqobil qo'llanishi muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatni belgilashga xizmat qiladi. D.Tannen hokimiyatni asimmetrik munosabat bilan bog'laydi. Bunday munosabatda tomonlardan biri ikkinchisiga nisbatan ustun mavqeda bo'ladi va bu ular qo'llaydigan murojaat shakllarining teng emasligida namoyon bo'ladi [4: 168]. Ushbu qarash erkak va ayol nutqida muntazam qo'llanadigan nomuqobil murojaatlarni gender asimmetriyasi nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi.

"Jannat o'zi qaydadir?" asarida Xonim eriga bir necha o'rinda *xo'jayin* deb murojaat qiladi: *"Bizniki ham sayohat, ham tijorat deb ataladi! Chidaysiz-da, xo'jayin!"* [5: 6], *"Qo'ysangiz-chi, xo'jayin, kim odam ekan shu zamonda!"* [5: 7], *"Voy, voy! O'zingizni bosing, xo'jayin!"* [5: 7]. *Xo'jayin* leksemasining lug'aviy mazmunida egalik qilish va boshqarish semalari mavjud. Uning erga nisbatan qo'llanishi erkakning oiladagi yetakchi mavqeyini til orqali e'tirof etuvchi an'anaviy murojaat shaklini yuzaga keltiradi. Keltirilgan holatlarda mazkur birlik faqat bo'ysunish ma'nosini ifodalamaydi. Birinchi misolda u yengil kesatiq, ikkinchisida erning fikriga e'tiroz, uchinchisida esa uning g'azabini yumshatish vazifasini bajargan. Demak, ushbu murojaat asosida erkak mavqeyini yuqori ko'rsatish xususiyati saqlansa-da, uning aniq pragmatik mazmuni kommunikativ vaziyatga ko'ra o'zgaradi.

2. Ayolning oilaviy gender maqomini ko'rsatuvchi murojaatlar. Badiiy matnda ayol personajga ismi bilan emas, uning gender yoki oilaviy maqomini anglatuvchi birliklar orqali murojaat qilinishi ko'p uchraydi. Bunday murojaatlar suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatning xususiyatiga qarab hurmat, yaqinlik, odatiylik yoki norozilik ma'nolarini yuzaga chiqaradi. "Suv yoqalab" asarida Bolta Mardon xotiniga: *"Kampir, shu supaning o'rtasida tut-mutimiz bormidi, eslaysanmi?"* [6: 9] – deb murojaat qiladi. Bu vaziyatda *kampir* kundalik oilaviy muloqotga xos odatiy murojaat bo'lib, unda dag'allikdan ko'ra er-xotin o'rtasidagi davomiy yaqinlik ustun turadi.

"Jannat o'zi qaydadir?" asarida Domla xotiniga ko'pincha *xonim* deb murojaat qiladi: *"Ha, xonim, tinchlikmi? Dunyoni buzvordingiz-ku shovqin solib!"* [5: 6] Mazkur nutqiy vaziyatda xonim tashqi jihatdan hurmatni ifodalasa-da, keyingi jumlalar uning norozilik va yengil kinoya bilan uyg'unlashganini ko'rsatadi. Asarning boshqa bir o'rnida esa Domla xotiniga: *"Birga borib kelsak bo'lardida, kampir?"* [5: 23] – deya murojaat qiladi. Bu yerda *kampir* kamsitish yoki salbiy baholashni emas, uzoq yillik er-xotinlik munosabatidan kelib chiqadigan yaqinlik va odatiylikni ifodalaydi. Taklif mazmunidagi jumla hamda muloyim ohang murojaatning salbiy ma'noda qo'llanmaganini bildiradi. Shunday qilib, *xonim, kampir, xotin* kabi birliklar ayol adresatni gender va oilaviy maqom orqali ifodalaydi. Biroq ularning pragmatik qiymati bir xil emas. Bu esa murojaat birligining mazmuni uning lug'aviy ma'nosidan tashqari nutqiy vaziyatga ham bog'liqligini ko'rsatadi.

3. Undovlar vositasida shakllangan murojaatlar. Murojaat birligi oldidan qo'llangan undovlar adresatning diqqatini jalb qilish bilan birga so'zlovchining hissiy holati va suhbatdoshiga munosabatini ham ifodalaydi. Ayniqsa, undov bilan gender maqomini anglatuvchi birlikning birikishi murojaatdagi buyruq, jerkish va ustunlik ma'nolarini kuchaytiradi. "Jannat o'zi qaydadir?" asarida Domla xotinining gapidan g'azablanib: *"O'v, xotin, es-pesingni yedingmi?! O'ylab gapiryapsanmi, axir?* [5: 7] – deya murojaat qiladi. Ushbu tuzilmada *o'v* undovi adresatning diqqatini keskin jalb qilsa, *xotin* birligi murojaatni bevosita ayolning oilaviy maqomiga yo'naltiradi. Undan keyingi ritorik so'roqlar esa norozilik va jerkish ohangini yanada kuchaytirgan. "Suv yoqalab" asarida Bolta Mardonning *"Hoy kelin, tush devordan!"* [6: 23] murojaati buyruq mazmuni bilan qo'llanadi. *Hoy* undovi, *kelin* murojaati va buyruq shaklidagi *tush* fe'li birgalikda adresatga nisbatan talabchanlik munosabatini hosil qilgan. *"Hoy kelin, qanaqa qog'oz ekan o'zi u? Bu yoqqa berchi!"* [6: 32] jumlasida ham *hoy kelin* shakli buyruq mazmunidagi keyingi jumla bilan bog'lanib, erkakning jamiyatdagi mavqeyi ustun ekanligini ko'rsatib beradi.

Biroq *hoy* undovining o'zi barcha vaziyatlarda dag'allik yoki buyruq vositasi hisoblanmaydi. Masalan, "Hulo'l" asaridagi *"Qoravoy, hoy Qoravoy!"* [7: 160] murojaati erkalash va hazil mazmunida ishlatilgan. Binobarin, undovli murojaatning pragmatik xususiyati undovning o'zi bilan emas, u birikkan

murojaat birligi, jumlaning mazmuni va kommunikativ vaziyat orqali belgilanadi.

4. Yaqinlik, samimiyat va erkalash mazmunidagi murojaatlar. Ayol va erkak o'rtasidagi muloqotda yaqinlik, ishonch va mehr munosabatlari maxsus murojaat birliklari orqali ham yuzaga chiqadi. Bunday shakllar suhbatdoshlar o'rtasidagi masofani qisqartirib, muloqotga samimiy va hissiy tus beradi. "Hulo'l" asarida Boybichcha suhbatdoshiga bir necha o'rinda *do'stim* deb murojaat qiladi: *"Nimamgayam maqtanardim, do'stim! Yuring, yaxshisi, maqtanadigan narsalarimni ko'rsatay sizga..."* [7: 148] Mazkur vaziyatda *do'stim* murojaati ayolning fikrini yumshatib, suhbatdoshini o'ziga yaqin tutayotganini ko'rsatadi. Boybichcha o'zining maqtanchoqlik sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan gapini aynan shu birlik vositasida samimiy suhbatda aylantirib yuboradi.

"Jannat o'zi qaydadir?" asarida erkakning ayolga mehrli munosabatini ifodalovchi *azizim* murojaati uchraydi. Domla xotiniga yozgan maktubini bir necha xil murojaat bilan boshlashga urinadi: *"Xonim... O'chirilgan... Azizim Roza Hasan... O'chirilgan... Bibirobiya!"* [5: 33] Ushbu ketma-ketlikda *xonim* rasmiy hurmatni, *azizim* mehr va hissiy yaqinlikni, *Bibirobiya* esa xotinning asl shaxsiga qaytishini anglatadi. Biroq *azizim* shaklining o'chirib tashlanishi ham pragmatik ahamiyatga ega. Domla xotiniga mehr ifodalovchi murojaatni tanlamoqchi bo'ladi, ammo uni tabiiy va ishonarli shaklda qo'llay olmaydi. Bu ikkilanish er-xotin munosabatlarida hissiy masofa kuchayganini ko'rsatadi.

5. Baholovchi, kinoya-hurmat yoki salbiy mazmunli murojaatlar. Baholovchi, kinoya-hurmat yoki salbiy mazmunni ifodalovchi murojaat shakllari ayrim kommunikativ vaziyatlarda o'zining odatiy ma'nosidan uzoqlashib, kinoya, kesatiq yoki norozilikni ifodalashi mumkin. Bunda birlikning tashqi shakli hurmatni saqlaydi, lekin nutqiy vaziyat va ohang uning pragmatik mazmunini o'zgartiradi. "Jannat o'zi qaydadir?" asarida Xonim erining nazariy fikrlarini hayotdan uzoq deb hisoblab: *"Esladik, esladik, domlayi kalon! Lekin hayot boshqa, anovi orzu-xayollar boshqa!"* [5: 8]–deya murojaat qiladi. *Domlayi kalon* birikmasi aslida yuksak hurmatni ifodalab, "ulug' domla" mazmunini anglatadi. Biroq mazkur vaziyatda Xonim erining ilmiy mavqeyini ulug'lashni emas, uning balandparvoz fikrlarini kesatishni ko'zlaydi. Takroriy *esladik, esladik* shakli ham murojaatdagi kinoyani kuchaytiradi.

Xonim eriga ish buyurganida Domla (sho'xchanlik bilan): *"Xo'p bo'ladi, xonim! Xo'p bo'ladi, Roza Hasanovna! Hozir-da"* [5: 7] – deb javob beradi. Erning o'z xotiniga ism va otaismi bilan murojaat qilishi haqiqiy rasmiy hurmatni emas, uning buyruq ohangiga kinoyaviy javobni ifodalaydi. *Xo'p bo'ladi* birikmasining takrorlanishi ham so'zlovchining namoyishkorona bo'ysunayotganini ko'rsatadi. "Suv yoqalab" asarida Bolta Mardonning: *"Bu yoqqa o't, tentak!"* [6: 22] gapi qahramonning o'g'liga nisbatan jahli va salbiy bahosini ifodalaydi. Leksema adresatning aqliy holarini xolis tavsiflamaydi, balki uni kamsitish, jerkish va so'zlovchining ustin mavqeyini kuchaytirish vazifasini bajaradi. Xullas, bu birliklarning haqiqiy pragmatik qiymati lug'aviy mazmunidan emas, muloqot vaziyati va personajlarning nutqiy ohangidan anglashiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Erkin A'zamning "Jannat o'zi qaydadir?", "Hulo'l" va "Suv yoqalab" asarlaridagi genderga xos murojaat birliklari personajlar o'rtasidagi munosabatning turli qirralarini yuzaga chiqaradi. Shu jihatdan murojaat birliklari badiiy matnda gender munosabatlarini, hokimiyat va yaqinlik darajasini hamda personajlarning bir-biriga bergan bahosini ixcham, ammo ta'sirchan tarzda ifodalovchi muuhim lingvopragmatik vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
2. Odinayev B.I. O'zbek nutqiy muloqotining lingvopragmatik xususiyatlari (Erkin A'zam asarlari misolida): Filol. fan. bo'y. fal. dokt. diss. avtoref... – Samarqand, 2024.
3. Dickey E. Forms of Address and Terms of Reference // Journal of Linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1997. Vol. 33, №2. – P. 255–274.
4. Tannen D. The Relativity of Linguistic Strategies: Rethinking Power and Solidarity in Gender and Dominance. In Gender and Conversational Interaction. – New York: Oxford University Press, 1993. – P. 165–188.
5. A'zam E. Jannat o'zi qaydadir?: dramatik qissa https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/erkin-a-zam-1950/erkin-a-zam-jannat-o-zi-qaydadir-dramatik-qissa.
6. A'zam E. Suv yoqalab // Tanho qayiq: kinoqissalar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2017. – B. 9–43.
7. A'zam E. Hulo'l // Yozuvchining bog'i: yangi asr hikoyalari va eski asrdan bir esdalik. – Toshkent: Mashhur-Press, 2019. – B. 146–168.